MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI

Toshpo'latova Gulnoza O'rinboy qizi
Farg'onadagi Xalqaro Korea Universiteti o'qituvchisi
E-mail:g.toshpulatova@nordicuniversity.org
ORCID: 0009-0005-0540-6688

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga mehr va ehtiyotkorona munosabatni rivojlantirishda innovatsion pedagogik usullardan foydalanish masalalari yoritiladi. Shuningdek, ekologik tarbiyani tashkil etishda loyiha metodi, interfaol o'yinlar, tajriba va kuzatishlar, raqamli ta'lim resurslari hamda tabiat bilan bevosita muloqotning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, innovatsion metodlar, tabiat, ekologik ong, interfaol o'yin, loyiha metodi.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются вопросы использования инновационных педагогических методов для формирования экологической культуры у детей дошкольного возраста, воспитания любви к природе и развития бережного отношения к окружающей среде. Также раскрывается значение проектного метода, интерактивных игр, экспериментов и наблюдений, цифровых образовательных ресурсов и непосредственного взаимодействия с природой в организации экологического воспитания.

Ключевые слова: дошкольное образование, экологическое воспитание, экологическая культура, инновационные методы, природа, экологическое сознание, интерактивные игры, проектный метод.

Abstract. This thesis examines the use of innovative pedagogical methods to foster environmental culture among preschool children and to develop their love for nature and responsible attitudes toward its protection. It also explores the importance of the project-based method, interactive games, experiments and observations, digital educational resources, and direct interaction with nature in organizing environmental education.

Keywords: preschool education, environmental education, environmental culture, innovative methods, nature, environmental awareness, interactive games, project-based method.

Kirish(Introduction)

Hozirgi kunda ekologik tarbiya - maktabgacha ta'lim pedagogikasining yangi yo'nalishi va dolzarb jihatlaridan biridir. Sayyoramizning ekologik holati va uning yomonlashuvi tendensiyasi hozirda yashayotgan odamlardan mavjud vaziyatni tushunishni va unga ongli munosabatda bo'lishni talab qiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ekologik muammolar barcha materiklar va har bir davlatga xosdir. Ular O‘zbekistonda ham mavjud hamda har bir mintaqah (hudud)ga xos farqlanadi.[1]

Maktabgacha yosh davri tarbiyalanuvchilarda dastlabki dunyoqarash, odob-axloq me'yorlari va atrof-muhitga munosabat shakllanadigan muhim bosqichdir. Aynan shu davrda ularga o‘simliklar va hayvonlarni asrash, suvni tejash, tozalikni saqlash hamda tabiat boyliklariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi tushunchalarni singdirish lozim.Ekologik tarbiyani samarali tashkil etish uchun an'anaviy tushuntirish usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur.

Metodlar(Methods)

"Ekologik detektivlar"-ekologik muammolarni aniqlash va yechim topishga asoslanga metodlardan bo‘lib, tarbiyalanuvchilarrga ifloslangan bog‘, so‘lib qolgan gul yoki ochiq qolgan jo‘mrak tasviri ko‘rsatiladi. Ular muammoni topib, sababini tushuntiradilar va yechim taklif qiladilar.

"Eko-saralash" interaktiv metodi- chiqindilarni to‘g‘ri ajratish ko‘nikmasini shakllantirishga asoslanga bo‘lib, tarbiyalanuvchilarga qog‘oz, plastik va boshqa xavfsiz buyumlar tasvirlarini tegishli guruhlarga ajratadilar. So‘ng nima uchun shunday tanlaganlarini izohlaydilar.

"Eko-rollar" metodi-ekologik mas'uliyatni rolli o‘yin orqali shakllantirish orqali tarbiyalanuvchilar "Tabiat himoyachisi", "Suv posboni", "Bog‘bon" va "Qushlar do‘sti" rollarini bajaradilar. Har bir rolga mos vazifani bajarib, guruh bilan natijani muhokama qilishadi.

Natijalar(Results)

Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish ularning tabiatga bo‘lgan munosabatini yaxshilash, ekologik bilimlarini kengaytirish hamda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, "Ekologik detektivlar" metodi orqali tarbiyalanuvchilarda tabiatdagi ekologik muammolarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini tushunish va muammolarga mustaqil yechim taklif qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Ifloslangan bog‘, so‘lib qolgan gul yoki ochiq qolgan jo‘mrak kabi vaziyatlarni tahlil qilish bolalarning kuzatuvchanligi, mantiqiy fikrlashi va ekologik mas'uliyatini oshirishga yordam beradi.

Ikkinchidan**,** "Eko-saralash" interaktiv metodi yordamida tarbiyalanuvchilarda chiqindilarni turlarga ajratish, buyumlarni xususiyatlariga ko‘ra tasniflash va ularni qayta ishlashning ahamiyatini anglash ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu metod bolalarning taqqoslash, guruhlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, atrof-muhitni toza saqlashga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Uchinchidan, "Eko-rollar" metodi orqali bolalarda tabiatni asrashga doir ijobiy xulq-atvor, o‘zaro hamkorlik, g‘amxo‘rlik va javobgarlik hissi mustahkamlanadi. "Tabiat himoyachisi", "Suv posboni", "Bog‘bon" va "Qushlar do‘sti" kabi rollarni bajarish orqali tarbiyalanuvchilar ekologik qoidalarning kundalik hayotdagi ahamiyatini tushunib, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rganadilar. Umuman olganda, mazkur metodlardan maqsadli va izchil foydalanish maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ekologik bilim, amaliy ko‘nikma va ijobiy munosabatlarning o‘zaro uyg‘un rivojlanishiga imkon yaratadi.

Muhokama(Discussion)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish uchun bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va bilish imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. "Ekologik detektivlar"

[1] Sh. A. Sultonov ., ,Z.G‘., Qosimova .,R.P..Omonova. MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI. "Экономика и социум" №1(140)-2 2026. http://www.iupr.ru/

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

metodi tarbiyalanuvchilarni muammoli vaziyatlarni kuzatish va tahlil qilishga undasa, "Eko-saralash" metodi ekologik bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlaydi. "Eko-rollar" metodi esa ularning hissiy munosabati, ijtimoiy faolligi va tabiatga nisbatan shaxsiy mas'uliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Ushbu metodlarning birgalikda qo'llanilishi ekologik tarbiyaning bilish, amaliy va tarbiyaviy jihatlarini qamrab olishga yordam beradi.Metodlarning samaradorligini oshirish uchun ta'limiy faoliyatlarda ko'rgazmali materiallar, rasmlar, xavfsiz o'yinchoqlar, rolli o'yinlar va kundalik hayotiy vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning fikrlarini tinglashi, ularni mustaqil xulosa chiqarishga rag'batlantirishi hamda ekologik odatlarni kundalik faoliyat bilan bog'lashi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Ushbu metodlarni maktabgacha ta'lim jarayoniga izchil tatbiq etish orqali bolalarda kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, hamkorlik, g'amxo'rlik va ekologik odatlarni shakllantirish uchun sharoit yaratiladi. Ayniqsa, ekologik tarbiyaning o'yin, amaliy topshiriq va hayotiy vaziyatlar bilan uyg'unlashtirilishi bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil, 27-maydagi Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 434-son qarori. https://lex.uz/uz/acts/-4354743
2. Sh. A. Sultonov ., ,Z.G'., Qosimova .,R.P..Omonova. MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI. "Экономика и социум" №1(140)-2 2026. http://www.iupr.ru/
3. G.A. Kamilova, Maktabgacha yosh bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish metodikasi. Modern Science and Research, (2025) mart, 617–622. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/75786
4. Hedefalk, M., Almqvist, J., Östman, L. Education for sustainable development in early childhood education: A review of the research literature. Environmental Education Research,(2015) 21(7) 975–990. https://doi.org/10.1080/13504622.2014.971716
5. Ardoin, N. M., Bowers, A. W. Early childhood environmental education: A systematic review of the research literature. Educational Research Review(2020) https://doi.org/10.1016/j.edurev.2020.100353

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.